Eksport jarayonlarini barqarorlashtirish uchun bir nechta muhim omillar ajralib turadi. Avvalo, bojxona operatsiyalari va tartib-taomillarini soddalashtirish, digitalizatsiya jarayonlarini joriy etish sohalarida erishilgan yutuqlar misol bo'la oladi. Masalan, oxirgi yillarda bojxona punktlarida yangi terminallar qurilgan, 20 dan ortiq bojxona postlari zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan, 35 dan ortiq axborot tizimlari ishga tushirilgan. Shu tariqa eksport jarayoni ilgari 9 bosqichdan iborat bo'lgan bo'lsa, hozirda bu jarayon 3 bosqichgacha qisqartirilgan [2].

Bundan tashqari, bojxona rasmiylashtirish uchun sarflanadigan vaqt sezilarli darajada kamaygan: import bojxonalarda rasmiylashtirish uchun o'rtacha 3 soat, eksport mahsulotlari uchun esa atigi 20 daqiqa vaqt ketmoqda. Bu kabi samaradorlik oshishi nafaqat eksportkor korxonalarning xarajatlarini kamaytiradi, balki mahsulotni xalqaro bozorlarga tayyorlash va yetkazib berish muddatlarini qisqartiradi.

Shuningdek, mamlakat import-eksport ishtirokchilari soni ham oshmoqda. Bojxona va savdo sohasidagi islohotlar natijasida eksport va import bilan shug'ullanuvchi korxonalarning savdo hajmi, faol ishtiroki kuchaygan. Ushbu tendensiyalar eksport jarayonlarini barqarorlashtirish uchun qulay ijtimoiy-iqtisodiy muhit yaratadi hamda davlat siyosati, infratuzilma, moliyaviy qo'llab-quvvatlash kabi omillarning ham korxonalarga erkinroq faoliyat yuritish imkonini oshiradi.

Shu bilan birga, eksport jarayonlarini barqarorlashtirishga xizmat qiluvchi yana bir muhim jihat – mahsulotlarimizning eksport bozorlari siyosatini kengaytirishdir. Misol uchun, mamlakatimizning birinchi sakkiz oyida 2025- yilda eksport hajmi \$23 milliardga yetib, yil davomida bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 31,3% ga oshgan. Eksport import tarkibida esa yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushi oshishi, agrar va oziq-ovqat mahsulotlarining, yengil sanoat mahsulotlarining eksport imkoniyatlarini kengaytirish, standartlar, sertifikatlashtirish tizimlarini rivojlantirish kabi omillar barqaror eksportni ta'minlashda muhim o'rin tutadi [3].

Umuman olganda, eksport jarayonlarini barqarorlashtirish omillari xususan: bojxona va logistika infratuzilmasining modernizatsiyalashuvi, mahsulot sifatini oshirish va xalqaro standartlarga moslashuvi, iqtisodiy siyosat va soliq-moliyaviy rag'batlar, bozorlarni diversifikatsiyalash, raqamli transformatsiya va jarayonlarni soddalashtirish, korxonalarga qulay moliyaviy resurslar mavjudligi kabi asosiy yo'nalishlardan iborat. Ushbu omillar samara bersagina eksport hajmi o'sadi, mamlakatning iqtisodiy mustahkamligi oshadi va xalqaro savdo aloqalarida raqobatbardosh mavqeni mustahkamlash mumkin bo'ladi.

Biroq eksport jarayonlarini barqarorlashtirishda mavjud muammolar ham inkor etib bo'lmaydi. Eng avvalo, logistika tizimining ayrim hududlarda yetarli darajada rivojlanmagani, transport infratuzilmasining eskirganligi va yuk tashish xarajatlarining yuqoriligi eksportning barqaror o'sishiga to'sqinlik qilmoqda. Masalan, Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston logistika samaradorligi indeksi 2024- yilda 3,2 ballni tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich mintaqadagi yetakchi davlatlar darajasidan pastroqdir. Shu bois, temiryo'l va avtomobil transporti tizimini modernizatsiya qilish, yangi logistika markazlarini tashkil etish hamda tranzit yo'laklarini kengaytirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda [4].

Bundan tashqari, eksport qilinayotgan mahsulotlarning xalqaro standartlarga mosligi, sifat sertifikatlari va brendlash masalalari ham e'tibordan chetda qolmasligi lozim. Mahsulotni xorij bozoriga olib chiqish uchun zarur sertifikatlar, texnik reglamentlar va ekologik talablarni bajarish ko'p hollarda vaqt va mablag' talab qiladi. Shu sababli, davlat tomonidan eksportchi korxonalarni moliyaviy rag'batlantirish, eksport sug'urtasini kengaytirish va yangi bozorlarni o'rganishga yordam beruvchi tashabbuslarni kuchaytirish mamlakatimiz eksport salohiyatini barqaror saqlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi

Mamlakatimizda eksport jarayonlarini barqarorlashtirish masalasi so'nggi yillarda iqtisodiy islohotlarning eng dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu borada iqtisodchi olimlar, xalqaro tashkilotlar va amaliyotchi mutaxassislar tomonidan turli ilmiy izlanishlar olib borilgan. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, eksportni barqarorlashtirish nafaqat tashqi savdoni kengaytirish, balki milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini mustahkamlash, ishlab chiqarish sohasini modernizatsiya qilish va investitsion muhitni yaxshilash bilan ham bevosita bog'liqdir.

Masalan, A.A. Azizov o'zining "O'zbekiston tashqi savdosining modernizatsiyasi sharoitida eksportni rivojlantirish istiqbollari" nomli tadqiqotida (2021) eksport siyosatining muhim tarkibiy qismlari sifatida soliq imtiyozlari, eksport sug'urtasi va eksport kreditlarini takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, eksport jarayonining barqarorligi uchun davlat tomonidan yaratiladigan muvozanatli moliyaviy infratuzilma va tashqi savdoda xavf-xatarlarni boshqarish tizimi alohida ahamiyatga ega [5].

Sh.M. Mamarasulov (2022) o'z tadqiqotlarida eksportning hududiy diversifikatsiyasi masalasiga urg'u beradi. U fikricha, ayrim viloyatlarda eksport ulushi yuqori bo'lsa-da, ayrim hududlarda eksport imkoniyatlari hali to'liq ishga solinmagan. Shu bois, har bir hududda mahalliy resurslar asosida eksportga

yo'naltirilgan mahsulotlarni ishlab chiqish, infratuzilmani rivojlantirish va logistika markazlarini tashkil etish zarur [6].

Xorijiy adabiyotlarda ham eksport barqarorligi masalasiga keng e'tibor qaratilgan. Masalan, M. Porterning "Milliy raqobatbardoshlik nazariyasi" asarida (1990) mamlakatning eksport salohiyati to'rtta asosiy omil – ishlab chiqarish resurslari, talab sharoiti, bog'liq va yordamchi tarmoqlar hamda korxona strategiyasi bilan belgilanadi. Porter modeliga ko'ra, aynan ichki bozor raqobati kuchli bo'lgan mamlakatlarga eksportda yuqori natijalarga erisha oladi. Ushbu yondashuv O'zbekiston misolida ham dolzarb bo'lib, ichki raqobatni rivojlantirish eksport barqarorligiga zamin yaratadi [7].

Shuningdek, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) va BMTning Savdo va taraqqiyot konferensiyasi (UNCTAD) hisobotlarida ham eksportni barqarorlashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan. Jumladan, XVJ 2024- yilgi "World Economic Outlook" hisobotida rivojlanayotgan mamlakatlarda eksport o'sishi uchun makroiqtisodiy barqarorlik, barqaror valyuta siyosati va tashqi qarz yukining kamayishi muhim omillar sifatida ko'rsatadi [8].

UNCTAD ma'lumotlariga ko'ra, 2024- yilda O'zbekistonning umumiy eksport hajmi \$25,3 milliardni tashkil etgan, bu esa o'tgan yilga nisbatan 29,6 foizga o'sishni bildiradi. Bu ko'rsatkich mamlakatda amalga oshirilayotgan tashqi savdo siyosati, logistika tizimini modernizatsiyalash va elektron eksport tizimini joriy etish natijasidir. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar tahliliga ko'ra, eksportda yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushi hali past bo'lib, bu ishlab chiqarish sohalarini texnologik yangilash zarurligini ko'rsatadi [9].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023- yil 20 dekabrda qilgan ma'ruzasida ham eksportni barqarorlashtirish strategiyasiga alohida to'xtalib o'tildi. Davlat rahbari 2026- yilga borib eksport hajmini kamida \$30 milliardga yetkazish, 2000 dan ortiq yangi eksportchi korxonalarni tashkil etish va eksport geografiyasini 100 dan ortiq davlatga kengaytirishni maqsad qilib qo'ygani aytdi. Bu, o'z navbatida, mamlakatda eksport infratuzilmasini yanada mustahkamlashni talab etadi [10].

Yana bir muhim manba sifatida O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ma'lumotlarini keltirish mumkin. Vazirlik hisobotiga ko'ra, 2025- yil boshiga kelib, 1800 dan ortiq yangi eksportchi korxonalar faoliyat boshlagan, 45 ta yangi logistika markazi ishga tushirilgan va 120 dan ortiq mahsulot turi ilk bor xorijga eksport qilingan. Bu raqamlar iqtisodiy siyosatning amaliy samaradorligini ifodalaydi.

Adabiyotlar tahlilidan ko'rinib turibdiki, eksport jarayonlarini barqarorlashtirish faqat tashqi savdo mexanizmlarini emas, balki ichki iqtisodiy tuzilmani ham modernizatsiya qilishni taqozo etadi. Mahalliy olimlarning

tadqiqotlari eksportni rag‘batlantirishda davlatning faol roli, soliq va bojxona imtiyozlari, moliyaviy vositalarning ahamiyatini ta’kidlaydi. Xorijiy adabiyotlar esa ko‘proq raqobatbardoshlik, innovatsion mahsulot ishlab chiqarish va bozor diversifikatsiyasiga urg‘u beradi.

Shu bois, adabiyotlar tahlili asosida aytish mumkinki, mamlakatimizda eksport jarayonlarini barqarorlashtirishning eng samarali yo‘li – mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash, logistika infratuzilmasini yaxshilash, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va xalqaro standartlarga mos sifat tizimini yaratishdir. Bu omillar uyg‘unlashganda, O‘zbekistonning eksport salohiyati nafaqat barqaror, balki uzoq muddatli istiqbolda raqobatbardosh bo‘lib shakllanadi.

Metodologiya

Tadqiqot davomida eksport jarayonlarini tahlil qilishda tizimli yondashuv, iqtisodiy-statistik tahlil, taqqoslama tahlil hamda induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, Jahon banki, UNCTAD va ITIM ma’lumotlari asosida amaliy tahlillar o‘tkazildi. Eksport jarayonlariga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar o‘rganilib, ularning barqarorlikka ta’siri iqtisodiy modellashtirish orqali baholandi. Olingan natijalar asosida mamlakatimiz eksport siyosatini takomillashtirishga doir ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar

O‘zbekiston Respublikasi so‘nggi yillarda eksport jarayonlarini barqarorlashtirishga qaratilgan izchil siyosat olib bormoqda. Iqtisodiy islohotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida eksportni rag‘batlantirish, logistika tizimini rivojlantirish, bojxona jarayonlarini soddalashtirish va mahsulotlarning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish ishlari amalga oshirilmoqda. Mamlakat eksport salohiyati barqaror o‘sib borayotganini so‘nggi yillardagi statistika ham tasdiqlaydi.

Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024- yilda O‘zbekistonning umumiy eksport hajmi 25,3 milliard AQSh dollarini tashkil etib, bu 2023- yilga nisbatan 29,6 foiz o‘shishni anglatadi. Eng yirik eksport mahsulotlari tarkibida oltin (54 foiz), rangli metallar (12 foiz), to‘qimachilik mahsulotlari (9 foiz) hamda oziq-ovqat mahsulotlari (6 foiz) ulushi ustunlik qiladi. Shu bilan birga, xizmatlar eksporti (transport, IT va turizm sohalari) hajmi 2024- yilda 3,1 milliard dollardan oshgan. Bu raqamlar mamlakat iqtisodiyotining tarkibiy diversifikatsiya yo‘lida ekanini ko‘rsatadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, eksport jarayonlarini barqarorlashtirishda bojxona infratuzilmasining modernizatsiyasi muhim o‘rin tutadi. 2022–2024 yillar davomida “Yagona bojxona oynasi” tizimi joriy qilinib, rasmiylashtirish jarayonlari 9 bosqichdan 3 bosqichgacha qisqartirildi. Natijada eksport tovarlarini bojxonadan

o'tkazish uchun sarflanadigan vaqt 3 soatdan 20 daqiqagacha qisqardi. Bu o'z navbatida korxonalar vaqtini, resurslarini tejashga va xalqaro yetkazib berish zanjirlarini tezlashtirishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, logistika tizimi samaradorligi ham eksport barqarorligining asosiy omillaridan biridir. Jahon bankining 2024- yilgi "Logistics Performance Index" reytingida O'zbekiston 3,2 ball bilan Markaziy Osiyo davlatlari orasida o'rtacha natijaga erishgan. 2025- yilga borib, mamlakatda 45 ta yangi logistika markazlari, 7 ta xalqaro transport terminali foydalanishga topshirildi. Bu esa yuk tashish xarajatlarini 12–15 foizga kamaytirgan.

Eksport jarayonlarining barqaror o'sishiga xizmat qiluvchi yana bir yo'nalish – raqamli texnologiyalarni joriy etishdir. So'nggi yillarda "E-Export" elektron platformasi ishga tushirilib, eksportchi korxonalarga onlayn tarzda hujjat topshirish, sertifikat olish va bojxona to'lovlarini amalga oshirish imkoniyati yaratildi. 2024 yil yakuniga ko'ra, ushbu tizim orqali 11 mingdan ortiq eksport operatsiyalari amalga oshirilgan. Bu esa davlat xizmatlari samaradorligini oshirgan va korrupsiya xavfini kamaytirgan.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasining 2020–2024 yillarda eksport hajmi dinamikasi (mlrd. AQSh dollari hisobida) [11]

Yil	Umumiy eksport hajmi	O'sish sur'ati (%)	Asosiy eksport mahsulotlari (ulushi, %)	Asosiy hamkor davlatlar
2020	13,7	–	Oltin (52%), paxta (10%), gaz (8%)	Xitoy, Rossiya, Turkiya
2021	15,4	+12,4	Oltin (55%), to'qimachilik (9%), oziq-ovqat (7%)	Xitoy, Qozog'iston, Rossiya
2022	18,9	+22,7	Oltin (50%), rangli metallar (11%), paxta (8%)	Rossiya, Turkiya, Qozog'iston
2023	19,5	+3,1	Oltin (48%), to'qimachilik (10%), avtomobil qismlari (5%)	Xitoy, Turkiya, Jan. Koreya
2024	25,3	+29,6	Oltin (54%), metallar (12%), oziq-ovqat (6%), xizmatlar (7%)	Xitoy, Germaniya, Turkiya

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2020–2024 yillar davomida O'zbekiston eksport hajmi izchil o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Agar 2020- yilda umumiy eksport hajmi 13,7 mlrd. dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilga kelib bu ko'rsatkich 25,3 mlrd. dollarga yetgan, ya'ni besh yil ichida qariyb 84 foizga o'sish kuzatilgan. Eng katta o'sish 2024- yilda qayd etilgan bo'lib, bu yili eksport hajmi 29,6 foizga ko'paygan.

Mahsulot tarkibida oltin hali ham asosiy o'rin egallayotgan bo'lsa-da, so'nggi yillarda to'qimachilik, oziq-ovqat, avtomobil ehtiyot qismlari va xizmatlar sektori eksportining oshgani diversifikatsiya jarayonlarining kuchayganini ko'rsatadi. Bu


esa iqtisodiyotning bir yoqlama xomashyo eksportiga bog‘liqligini kamaytirib, barqaror o‘shish uchun zamin yaratmoqda.

Hamkor davlatlar tarkibining kengayib borayotgani – Xitoy, Turkiya, Qozog‘iston bilan bir qatorda Germaniya va Janubiy Koreya bilan savdo aloqalari mustahkamlanayotganini anglatadi. Bu esa O‘zbekistonning eksport geografiyasini diversifikatsiya qilish borasida ijobiy natijalarga erishayotganidan dalolat beradi.

Eksport tarkibida yangi tarmoqlarning paydo bo‘lishi ham ijobiy natija sifatida baholanadi. Jumladan, so‘nggi ikki yilda farmatsevtika, avtomobil ehtiyot qismlari, elektrotexnika va IT xizmatlari eksporti 40 foizdan ortiq o‘ydi. Shu bilan birga, meva-sabzavot mahsulotlari eksporti 2025- yilning dastlabki sakkiz oyida 1,6 milliard dollarni tashkil etdi, bu o‘tgan yilga nisbatan 18 foiz yuqori ko‘rsatkichdir.

Hududiy kesimda esa Toshkent shahri, Toshkent, Farg‘ona, Samarqand va Navoiy viloyatlari eksportda yetakchilik qilmoqda. Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Surxondaryo viloyatlarida eksport salohiyati hali to‘liq ishga solinmagan bo‘lib, bu hududlarda logistika, ishlab chiqarish va sertifikatlashtirish tizimlarini yanada takomillashtirish talab etiladi.

Eksport barqarorligiga ta’sir etuvchi muhim omillardan yana biri – moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimidir. 2024- yilda Tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tomonidan 800 dan ortiq korxonaga 250 million dollardan ziyod mablag‘ ajratilgan. Shuningdek, “O‘zbekeksport” sug‘urta kompaniyasi orqali 1200 ta eksport shartnomasi sug‘urtalangan. Bu korxonalarga tashqi risklardan himoyalash imkonini bermoqda.



1-diagramma. O‘zbekiston Respublikasining 2020–2024 yillarda eksport hajmining o‘shish dinamikasi (mlrd. AQSh dollari hisobida) [12]

Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston eksport hajmi so‘nggi besh yil ichida izchil o‘shib bormoqda. 2020- yildagi 13,7 mlrd. dollarlik eksport hajmi 2024 yilga kelib 25,3 mlrd. dollarga yetgan. Ushbu ko‘rsatkich 5 yil ichida qariyb 84

foizlik o'sishni ifodalaydi. Ayniqsa, 2022- yilda o'sish sur'ati yuqori bo'lib, 22,7 foizni tashkil etgan.

Bunday natijaga erishishda eksport tarkibining diversifikatsiyasi, xususan, to'qimachilik, oziq-ovqat, rangli metallar va xizmatlar sohalarining rivojlanishi muhim omil bo'ldi. Diagramma eksport siyosatining bosqichma-bosqich takomillashib borayotganini va tashqi savdo siyosatida muvozanatli yondashuvlar qo'llanilayotganini ko'rsatadi.

2024- yildagi keskin o'sish mamlakatning ishlab chiqarish salohiyati ortgani, logistika infratuzilmasining yaxshilanishi hamda yangi eksport bozorlariga kirib borish natijasidir. Shu jihatdan, diagramma eksport jarayonlarining barqaror o'sish yo'nalishida ekanini tasdiqlaydi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi.

Xalqaro hamkorlik yo'nalishida ham sezilarli o'sish kuzatilmoqda. Bugungi kunda O'zbekiston eksport geografiyasi 90 dan ortiq davlatni qamrab olgan. Eng asosiy hamkorlar sifatida Xitoy, Rossiya, Turkiya, Qozog'iston, Janubiy Koreya va Germaniya ajralib turadi. Shu bilan birga, Afrika va Yaqin Sharq davlatlariga eksport hajmi ham bosqichma-bosqich oshmoqda.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda eksport jarayonlarini barqarorlashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgan asosiy omillar quyidagilardir:

1. Bojxona tartib-taomillarining soddalashuvi va raqamli texnologiyalarning joriy etilishi;
2. Transport-logistika infratuzilmasining kengaytirilishi;
3. Moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining kuchaytirilishi;
4. Eksport tarkibida yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushining oshishi;
5. Xalqaro hamkorlik va yangi bozorlarni o'zlashtirish.

Shu bilan birga, ayrim muammolar ham mavjud: logistika xarajatlarining yuqoriligi, eksportchi korxonalar uchun sertifikatlashtirish talablari murakkabligi, kadrlar yetishmovchiligi va ichki bozorlarda innovatsion ishlab chiqarishning sustligi. Ushbu masalalarni hal etish uchun davlat siyosatini yanada takomillashtirish, xususiy sektorni rag'batlantirish va xalqaro tajribani joriy etish zarur.

Natijaviy tahlil shuni ko'rsatadiki, agar yuqoridagi yo'nalishlar izchil davom ettirilsa, 2030- yilga borib O'zbekistonning eksport hajmini kamida 40 milliard dollarga yetkazish, yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushini esa ikki barobar oshirish mumkin. Bu nafaqat iqtisodiy barqarorlikni, balki mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini ham ta'minlaydi.

Xulosa

O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda eksport jarayonlarining samarali tashkil etilishi muhim strategik ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot davomida o'rganilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, mamlakatimizda so'nggi yillarda eksport hajmi izchil ortib bormoqda, mahsulot tarkibi esa tobora diversifikatsiyalanmoqda. Ayniqsa, to'qimachilik, oziq-ovqat, rangli metallar, avtomobil qismlari va xizmatlar eksportining ortgani iqtisodiy tizimda yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Eksport barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillar sifatida ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, eksport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, xalqaro standartlarga mos sertifikatlash tizimini rivojlantirish, logistika tarmoqlarini takomillashtirish va yangi bozorlarni o'zlashtirish jarayonlari ajralib turadi.

Shuningdek, davlat tomonidan berilayotgan soliq va bojxona imtiyozlari, eksportni qo'llab-quvvatlash jamg'armalari, xorijiy investitsiyalarni jalb etish ham eksportni barqarorlashtirishda muhim rol o'ynamoqda.

Kelgusida eksport siyosatini yanada samarali amalga oshirish uchun mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish, "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini eksport jarayonlariga joriy etish va raqamli texnologiyalar yordamida xalqaro savdoni soddalashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent, 2024.
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari. – stat.uz
3. "O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo faoliyati to'g'risida"gi Qonun. – 2019 yil 22 aprelda qabul qilingan.
4. Jahon banki (World Bank). Uzbekistan Trade Indicators Report 2024. – Washington, 2024.
5. UNCTAD. World Investment and Trade Report 2023. – Geneva, 2023.
6. ITIM – O'zbekiston investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi rasmiy portali. – www.invest.gov.uz
7. Karimov, A. (2022). Eksport siyosatini takomillashtirishda innovatsion yondashuvlar. Toshkent: TDIU nashriyoti.
8. Abduhalilov, M. (2023). Milliy iqtisodiyotda eksport jarayonlarini boshqarish mexanizmlari. T.: Iqtisodiyot nashriyoti.
9. OECD. Trade Policy Review: Uzbekistan 2023. – Paris, 2023.
10. Xudoyberdiyev, B. (2021). Tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishda davlat siyosati. Toshkent: Fan.
11. FAO. Agricultural Export Diversification in Central Asia. – Rome, 2022.
12. "Raqamli iqtisodiyot sharoitida eksport tizimini modernizatsiyalash yo'nalishlari." – Iqtisodiyot va innovatsiyalar jurnali, №4, 2024.
- 13.

[https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&hl=ru&cites=7614125584456677491&as_sdt=5#d=g_s_cit&t=1759819666122&u=%2Fscholar%3Fq%3Dinfo%3AuG6Ebat06foJ%3Ascholar.google.com%2F%26output%3Dcite%26scirp%3D0%26hl%3Dru%3A~:text=Axmetovna%2C%20A.%20N.%20\(2025\).%20O%20%E2%80%98ZBEKISTON%20IQTISODIYOTIDA%20KICHIK%20VA%20](https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&hl=ru&cites=7614125584456677491&as_sdt=5#d=g_s_cit&t=1759819666122&u=%2Fscholar%3Fq%3Dinfo%3AuG6Ebat06foJ%3Ascholar.google.com%2F%26output%3Dcite%26scirp%3D0%26hl%3Dru%3A~:text=Axmetovna%2C%20A.%20N.%20(2025).%20O%20%E2%80%98ZBEKISTON%20IQTISODIYOTIDA%20KICHIK%20VA%20)

[00%20%E2%80%98RTA%20BIZNESNING%20O%20%E2%80%98RNI%20VA%20RIVOJLANISH%20IMKONIYATLARI.%20TANQIDIY%20NAZAR%2C%20TAHLILIY%20TAFAKKUR%20VA%20INNOVATSION%20G%20%E2%80%98OYALAR%2C%201\(9\)%2C%20386%2D388.](#)

14. Axmetovna, A. N. (2025). O 'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA KICHIK VA O 'RTA BIZNESNING O 'RNI VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI. *TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G 'OYALAR*, 1(9), 386-388.

15. Abdivaliyev, S. (2025). THE IMPACT OF INTERNATIONAL TRADE ORGANIZATIONS AND FINANCIAL INSTITUTIONS ON GLOBAL ECONOMY. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(1), 71-75.

16. Abdivaliyev, S. (2025). Milliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga olib chiqishdagi to 'siqlarni bartaraf qilish choralari. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 3(4).

SANOAT KORXONALARIDA HR MENEJMENT TIZIMINI JORIY ETISH VA XODIMLARNI BOSHQARUV HOLATI TAHLILI

Toshtemirov Sardor G'olib o'g'li

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti
Iqtisodiyot yo'nalishi 2-bosqich magistranti

E-mail: tsardor2105@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada "Javel" MChJ misolida sanoat korxonalarida mehnat resurslarini boshqarish, ularning samaradorligini oshirish hamda HR menejment tizimini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari asosida korxonaning mehnat resurslari tarkibi, ish vaqtidan foydalanish darajasi va xodimlar turg'unligi bo'yicha ijobiy o'zgarishlar aniqlanib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: mehnat resurslari, HR menejment, samaradorlik, sanoat korxonasi, mehnat unumdorligi, ish vaqti tahlili, kadrlar tarkibi, turg'unlik, boshqaruv tizimi.

Аннотация. В статье анализируются вопросы управления трудовыми ресурсами, повышения их эффективности и совершенствования системы управления персоналом на промышленных предприятиях на примере ООО «Жавель». По результатам исследования выявлены позитивные изменения в структуре трудовых ресурсов предприятия, уровне использования рабочего времени и текучести кадров, а также разработаны практические рекомендации.

Ключевые слова: трудовые ресурсы, управление персоналом, эффективность, промышленное предприятие, производительность труда, анализ рабочего времени, кадровый состав, текучесть кадров, система управления.

Abstract. This article analyzes the issues of labor resource management at industrial enterprises, increasing their efficiency, and improving the HR management system using the example of "Javel" LLC. Based on the research results, positive changes in the composition of the enterprise's labor resources, the level of work time utilization, and employee stability were identified, and practical recommendations were developed.

Keywords: labor resources, HR management, efficiency, industrial enterprise, labor productivity, analysis of working hours, personnel composition, stability, management system.

Kirish

Sanoat korxonalarining kadrlar bilan ta'minlanishi toifalar va kasblar bo'yicha xodimlarning haqiqiy sonini reja ehtiyojlari bilan taqqoslash asosida aniqlanadi.

Ingliz tili muharriri: Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi
Musahhih: Vaxabova Marfua Mirkamalovna
Sahifalovchi va dizayner: Zoirov Sardor Ziyodin o'g'li

2- TOPLAM

2- MAXSUS SON /2025

© Materiallar ko'chirib bosilganda, **“Management and Economics Scientific Research Journal”** jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pulli asosda chop etiladi.

El. pochta: journals@timeedu.uz

Tel.: +998 95 651 90 00

“Management and Economics Scientific Research Journal” jurnali 19.09.2024-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 404368-son reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. Litsenziya raqami:

C-5669639

PNFL: 308906510

Manzilimiz: Toshkent shahar Yakkasaroy tumani
Shota Rustaveli ko'chasi, 114